

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMYX XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d., prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririylashriyot kengashi

IJTIMOY FANLAR BO'YICHA

XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rınboyev I.

Tahririylashriyot manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Sh.Abdug'affor

XX asr boshlarida Farg'ona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Ta'llimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarda O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanining

o'qitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yo'lidagi o'ziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qataq'on siyosati qurboni bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yo'Ichiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarda Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniyat (Farg'ona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar

(Farg'ona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



УО‘К: 94(47+575)"1900/1917":330.342

XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VILOYATINING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN IQTISODIY ALOQALARI

ФЕРГАНСКАЯ ОБЛАСТЬ В НАЧАЛЕ ХХ ВЕКА С РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ

WITH THE RUSSIAN EMPIRE OF THE FERGANA REGION AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY ECONOMIC RELATIONS

Abdug‘affor Sharafiddinov

Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasи dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada mahalliy arxiv materiallari va boshqa tarixiy manbalar asosida XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari haqida va oqibatda viloyatni Rossiyaning sanoat mollari bozoriga aylanishi, hamda viloyatga rus kapitalining kirib kelishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье на основе местных архивных материалов и других исторических источников рассматриваются экономические связи Ферганской области с Российской империей в начале XX века и, в конечном итоге, превращение области в российский рынок промышленных товаров, а также приток в провинцию российского капитала.

Abstract

The article reflects on the economic relations of the Fergana region with the Russian Empire at the beginning of the 20th century on the basis of local archival materials and other historical sources, and consequently on the transformation of the region into the Russian market of industrial goods, as well as the penetration of Russian capital into the region.

Kalit so‘zlar: Paxtachilik, kapital, imperiya, pud, Amerika paxtasi, temir yo‘l, birja, kunjara, eksport, paxta yog‘i, chigit, kredit, manfakturna, veksel, bank kapitali.

Ключевые слова: Хлопок, капитал, империя, фунт, американский хлопок, железная дорога, биржа, кунжут, экспорт, хлопковое масло, семя, кредит, Мануфактура, вексель, банковский капитал.

Key words: Cotton, Capital, Empire, pud, American cotton, railroad, exchange, kunjara, exports, cottonseed oil, hemp, credit, manfakturna, promissory note, bank capital.

KIRISH

XIX asr oxiri va XX boshlarida Podsho Rossiyasida monopolistik kapitalizm tez rivojlandi. Bu hol Turkistonda, jumladan Farg‘ona viloyatida katta o‘zgarishlarga olib keldi. O‘lkada paxtachilikning rivojlanishi, temir yo‘llarning qurilishi va xom ashyoga dastlabki ishlov beruvchi sanoat korxonalarining o‘sishiga sabab bo‘ldi.

Ta’kidlash o‘rinligi, 1890-1913-yillarda temir yo‘l qurilishi tezligi jihatdan Rossiya imperiyasi birinchi o‘rinda turdi. Bu davrda Zakaspiy – O‘rta Osiyo temir yo‘llining qurilishi, ayniqsa, keyinroq Orenburg-Toshkent temir yo‘li, 1912-yilda Farg‘ona temir yo‘llining ishga tushishi O‘rta Osiyo bilan Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi savdo aloqalarida burilish yasadi. Bu davrda Rossiyaning mustamlakasi bo‘lgan Farg‘ona viloyati birinchi darajali xom ashyo yetkazib beruvchigina bo‘lmay, endi u Rossiya imperiyasining kapital kiritish manbaiga ham aylandi. Endi koloniyaga moliya kapitali kirib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rus kapitalizmining o‘lkaga kirib kelishi bu yerda yirik paxta tozalash va yog‘ zavodi, tog‘-kon sanoati, bank va uning bo‘limlarini tashkil etilishida namoyon bo‘ldi.

XX asrning boshlariga kelib, podsho Rossiyasida ip-gazlama sanoatining izchillik bilan rivojlanishi paxtachilikni yanada rivojlanishini taqozo etar edi.

Bu davrda Rossiyaning paxtaga bo'lgan ehtiyoji 15 mln pudni tashkil etardi. Bu ehtiyojning 1/3 qismini O'rta Osiyo yetkazib berardi.[3.26] Turkiston o'lkasining salmog'i chet eldan keltirilayotgan paxtaga nisbatan tabora ortib bordi. Turkiston o'lkasining paxtasi sifat jihatidan Amerika paxtasiga nisbatan pastroq darajada bo'lishiga qaramasdan Rossiya uchun arzonroq tushardi. Aynan shu sababdan O'rta Osiyoda paxtachilik tez sur'atlar bilan rivojlandi.

O'rta Osiyo paxtasi Rossiyaga Krasnovodsk va Toshkent orqali olib ketilgan. Masofaning uzoqligiga qaramasdan Orenburg- Toshkent temir yo'lining qurilishigacha paxta asosan Krasnovodsk orqali olib ketilgan. Buning sababi shunda ediki, Krasnovodsk orqali olib ketiladiganidan xar bir pud paxtaning ta'rif summasi Toshkent orqali olib ketiladigan ancha arzon turgan. Toshkent orqali olib ketiladigan paxtaning har pudi 116 rub 17 kop ni, Krasnovodsk orqali esa -75 rub 35 kop ni yoki 41 rub 82 kop ga kamroqni tashkil etgan. [10.352]

O'rta Osiyodan olib ketiladigan paxtaning asosiy qismini Farg'ona paxtasi tashkil etardi. Undan keyingi o'rnlarda Buxoro va Zakaspiy viloyatlari turardi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

Viloyatlar va emirat	Turkistondan Rossiyaga olib ketilgan paxta (pud hisobida)			
	1907 y	1908 y	1909 y	1911 y
Farg'ona	6719469	5557389	6773196	7459987
Samarqand	533530	62830	605312	638117
Buxoro	1685966	1747901	1807852	1986171
Zakaspiy	1089983	930791	1239521	1000749
Jami:	10547596	9270304	10733266	11409142

Agar oxirgi uch yilda Turkiston o'lkasidan Rossiyaga jo'natilgan paxtani 100% deb oladigan bo'lsak, 1912-yil Farg'ona viloyati hisobiga 59,5%, 1913 yil-62,2% va nihoyat 1914-yil 53,3%-ni tashkil etgan. [5.61] 1914 yildagi ko'rsatkichning pasayganligi birinchi jahon urushi bilan bog'liq bo'lgan.

Podsho Rossiyasi to'qimachilik sanoati ehtiyojlarini qondirish maqsadida mahalliy xalq qiziqishlarini chetlab, Farg'ona vilyaotida paxtachilikni rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlarni ko'ra boshladi. Masalan, paxtaga ishlov berishning agronomik usullarini o'rgana boshladi, temir yo'l orqali paxtani tashib ketish uchun imtiyozli ta'riflar, bozorda sotish uchun yuqori narxlar belgilandi. Savdo-sanoat birjalari tashkil etildi. Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan yerlar hisobiga paxta maydonlari kengaytirildi. Bularning evaziga 10 yil ichida (1902-1912 yillar) Rossiyaga paxta jo'natish muntazam oshib borgan. Agar 1902 yilda 2 mln. 154 ming pud paxta jo'natilgan bo'lsa, 1911-yilga kelib bu ko'rsatkich 8 mln 190 ming pudni tashkil etdi.[17.8] Keyingi 4 yil ichida Farg'ona viloyatidan Rossiyaga: 1912 yilda 8 309 424 pud, 1913 yilda – 6576 298, 1914 yilda – 7 127 393 va 1915-yilda – 7 694 724 pud paxta olib ketilgan. [3.16]

Ta'kidlash lozimki, bu davrda ham tashib ketish, olib kelishdan ustun bo'lgan. Masalan 200 mln rublik paxta tashib ketilgan holda 100 mln rub lik to'qimachilik mollari Turkistonga Rossiyadan keltirilgan, yoki tashib ketish olib kelishdan 2 marta ortiq bo'lgan. [2.87] Farg'ona viloyati eksportida paxta birinchi o'rinda turgan.

Turkiston o'lkasida paxtachilikni rivojlanishi bilan birgalikda yog' va kunjara ishlab chiqarish sanoati ham rivojlanib bordi. Turkiston ushbu mahsulotlarni ham eksport qiluvchi hududga aylanib bordi.

1913-yilda Turkiston o'lkasida paxta chigitidan yog' ishlab chiqaruvchi korxonalar Farg'ona vilyaotida 14 ta, Zakaspiy viloyatida – 6 ta, Buxoroda – 1 ta, Samarqndda – 1 ta, Toshkentda – 1 tani tashkil etardi.

Shu boisdan, paxta yog'i o'lkaning turli viloyatlaridan olib ketilgan, lekin uning kattagina qismi asosan Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan. Buni quyidagi jadvaldan bilish mumkin. [7]

Yillar	Yog'		Kunjara	
	Turkistondan	Farg'onadan	Turkistondan	Farg'onadan
1905	487958	378 640	308356	129592
1906	576878	318 836	669313	215490

TARIX

1907	526685	341 116	1 113 902	369125
1908	579733	465 523	1 032 924	562390
1909	923018	-	1 758 407	1 249 047
1910	1 575 980	-	1 971 917	-
1911	1 772 186	-	1 336 528	-
1912	2 382 818	-	2 593 381	1 052 582
1913	2 115 119	1 912 899	1 636 676	-
1914	1 789 899	231 038	1 307 748	-

Jadvaldan ko'riniib turibdiki, Farg'ona viloyati yog' va kunjara eksportida ham muhim rol o'ynaganligi va bu eksport doimiy ravishda o'sib borgan.

Aytish lozimki, yog' sanoatining asosiy mahsulotlaridan biri hisoblangan kunjara asoan Germaniya va Angliyaga eksport qilingan. [10.326]

1909 yilda Turkiston o'lkasidan eksport qilinayotgan kunjaraning 46,3% Farg'ona viloyatining hissasiga to'g'ri kelgan. Yog'-moy sanoatining rivojlanishi oqibatida paxta xom ashyosining qiymati ham ortib bordi. Bu esa o'z navbatida chigitning ham narhini yildan-yilga ortib borishiga olib keldi.

XIX asrning 90-yillari oxirlarida chigitning narxi Andijonda 5 pud 13 funti 4 kopek bo'lib, chigit bilan uylarni isitgan bo'lsalar (o'tin sifatida foydalanilgan-A.SH.) endilikda 1906 yilga kelib, Andijonning o'zida shu miqdordagi chigit 1 rub. 40 kop dan sotilgan. [10.330]

NATIJA VA MUHOKAMA

Farg'ona viloyati har yili 1 mln.pud paxta chigitni yetkazib bergen. Lekin, viloyatdagi mavjud yog' zavodlari bu chigitlarni qayta ishlashga ulgurmas edi. Shu boisdan mahalliy zavodlardan tashqari viloyat chigitini Kattaqo'rg'on yog' zavodiga, Fedchenko stansiyasiga yuborilgan. Nijegorod yog' zavodi asosan Farg'ona paxta chigitini qayta ishslash hisobiga faoliyat ko'rsatgan.

Oblast yog' zavodlarida sovun ham ishlab chiqarilgan. Mayda mahalliy zavodlardan tashqari yirik yog' zavodlarida ishlab chiqarilgan sovunlar miqdori yiliga o'rtacha $\frac{1}{4}$ million pudga to'g'ri keladi. [4.42]

1913-yil temir yo'l statistika ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona dan sovun chetga kam miqdorda chiqarilgan. Ishlab chiqarilgan sovun asosan mahalliy ehtiyoj uchun ishlatilgan. Mahalliy bozorda sovunning narxi 2 rub. 50 kopdan 4 rublgacha bo'lgan. [10.352] Lekin, ba'zi hollarda talabga ko'ra chetga ham chiqarilgan. Masalan, 1913 yilda temir yo'lning Andijon va Farg'ona tarmog'i orqali 47500 pud sovun chetga chiqarilgan. [5.161]

Ta'kidlash lozimki, yog' ishlab chiqarish korxonalari o'z zavodlarida yil davomida chigit bilan yetarli ta'minlab turish uchun yanvar (yilning boshidan) oyidan boshlab bo'lgusi hosil uchun bay puli to'lab qo'ya boshladilar. Natijada chigit sotuvchi dehqon yoki korxona chigitni faqat shu bay puli bergen tashkilotga yoki shaxsgagina u ko'rsatgan narxda sota oladi. Chunki chigit sotuvchi dehqon qarzdor hisoblangan. Ikkinchini tomondan paxtani sotib oluvchi firmalar ilgari paxtadan chiqqan chigitni zavodlarga sotgan bo'lsalar, endilikda o'zları paxta zavodlarini qura boshlaydilar. [12.1]

Farg'ona viloyatining mahalliy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan eksport predmetlaridan yana biri ipak hisoblanadi. XIX asrning so'nggi yillarda ipak qurti urug'ining turli kasalliklar bilan zararlanishi oqibatida bu sohada tanazzul holati yuz bergandi. Lekin, yangi ipakchilik korxonalarining tashkil etilishi Farg'ona da ipakchilikning yangitdan tashkil etilishi boshlandi va endilikda O'rta Osiyo pillsining 80%ni Farg'ona viloyati yetishtiradigan bo'ldi. Masalan, 1900 yilda eksport qilingan 27 508 pud pillanining 25 821 pudi Farg'ona viloyati ulushiga to'g'ri kelgan. Farg'ona viloyati yillik pilla yetishtirishdan 2,5 mln rubl daromad olgan. [13.43]

1910 yili viloyatda 3 mln rubl pilla yetishtirilgan bo'lib, uning chorak qismi viloyatning o'zida ishslash uchun qoldirilgan, bir qismi Buxoroga yuborilgan, yana bir qismi Italiya (Milan)ga, chorak qismi Fransiya (Marsel)ga yuborilgan. [14.43] 1912 yil esa O'rta Osiyo temir yo'lining Andijon tarmog'idan 560 wagon, yoki har bir vagonni 100 puddan hisoblaganda 56 ming pud pilla eksport qilingan. [15.11-12]

Aytish lozimki, Farg'ona viloyatidan ko'p bo'lмаган miqdorda oshlangan qo'y terisi ham tashib ketilgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda Andijon temir yo'l tarmog'idan 485 00 pud, Farg'ona temir yo'li orqali esa 6000 pud, hammasi bo'lib 54 500 pud teri tashib ketilgan.

Farg'ona viloyatidan Rossiyaga chiqarilgan mevalar to'g'risida to'liq ma'lumot mavjud emas. 1911 yilda O'rta Osiyo temir yo'li orqali quruq va xo'l mevalar jami 2178 ming pud tashib ketilgan.

Shu jumladan Qo'qondan 26 ming pud, Andijondan – 8 ming pud, Gorchakovdan 9 ming pud jo'natilgan. Shu bilan Andijondan yana 12 ming pud xar-xil yong'oqlar jo'natilgan. Andijondan asal ham chiqarilgan [15.11-12]

Orenburg – Toshkent temir yo'lining qurilishi oqibatida Rossiyaga jo'natilgan tovarlar asosan Toshkent orqali jo'natilgan, chunki bu yo'l nisbatan yaqinroq bo'lib, yuborilgan tovarlar nisbatan tez fursatlarda yetib borgan. Agar tovarlar Krasnovodsk orqali jo'natiladigan bo'lsa ularni bir necha marotaba qaytadan yuklashga to'g'ri kelgan. Bu esa tovarlarni narxini ortib ketishiga va ularni sifatini buzilishiga olib kelgan.

Farg'ona viloyatiga Rossiyadan sanoat va manfaktura tovarlaridan boshqa, don ham keltirilgan.

O'rta Osiyo temir yo'li ma'lumotlariga qaraganda 1900 yilda Rossiyadan quyidagi tovarlar keltirilgan: manufaktura 12 mln 155 ming rub; ip, kalava – 1 mln. 114 ming rub; qand, shakar – 800 ming rub; temir va boshqa metallar – 711 ming rub; baqqollik mollari – 683 ming rub; poyabzal-542 ming rub; kerosin-414 ming rub; vino va vodka – 330 ming rub; bo'yoq mollari – 300 ming rub; chinni va shisha idishlar – 171 ming rub; attorlik mollari – 100 ming rub, hammasi bo'lib 17 mln. 320 ming rublik mollar keltirilgan.

Bundan tashqari, viloyatga choy, turli donlar va yirik shoxli qoramollar olib kelingan. 1908 yilda viloyatga 4420 242 rublik don; arpa -701986 rubl; guruch – 762 570 rubl; bug'doy uni – 1607707 rub; gazlamalar – 625 217 rubl; kerosin – 716 096 rublik mollar olib kelingan. [4.548]

E'tibor qaratish kerakki, podsho Rossiyasi viloyatda asosan paxtachilikni rivojlantirganligi uchun, paxtachilik viloyatni tashib kelinadigan donga nisbatan qaramlik holatiga keltirib qo'ydi. Masalan, 1900 yilda viloyatga chetdan keltirilgan don 7 mln rubni tashkil etdi. [6.7]

Yildan yilga paxta ekiladigan maydonlarning kengayib borishi natijasida chetdan olib kelinadigan donning miqdori ortib borgan. Har bir million pud olib kelingan don o'lkada paxta ekish uchun 10 ming desyatina yer maydonlarini bo'shatib berar edi. Bu esa Rossiya uchun 200 ming pud paxta tolasini yetkazib berar edi. Shunday qilib Turkiston, shu jumladan Farg'ona viloyati Rossiyaning asosiy ichki bozoriga aylanib bormoqda edi.

Farg'ona temir yo'l boshqarmasining hisobotidan ko'rindan, Qo'qon, Gorchakova, Fedchenko, Asaka, Andijon stansiyalariga olib kelingan don 5 yil ichida quyidagicha bo'lgan: 1908-yilda 8 mln 307 ming pud, 1909-yil – 9 mln 982 ming pud, 1910-yil 18 mln 202 ming pud, 1911-yil – 16 mln 761 ming pud, 1912-yil – 14 mln. 149 ming pud [6.7] O'rta Osiyo temir yo'l boshqarmasi statistik ma'lumotlari ham xarakterlidir. 1911-yil – 13 mln 500 ming pud, 1912-yil – 13 mln pud va 1915-yil – 11 mln 300 ming pud don keltirilgan. [16.52] Demak, hisoblaganda o'rtacha har yili Farg'ona viloyatiga 11 mln 400 ming pud don keltirilgan.

1916-yil 28-sentabrda oziq-ovqat ishlari bo'yicha don seksiyasining yig'ilishida viloyatning donga bo'lgan ehtiyoji juda yuqori ekanligi ta'kidlanib, yillik iste'mol uchun viloyatga 18 mln pud don zarurligi aytib o'tilgandi. [14.43]

Qishloq xo'jaligi va savdo vakillarining qurultoyida 1911-yil 1 avgustdan 1912-yilga qadar Farg'ona viloyatiga 18 mln pud don keltirilgan. Shundan 2 mln pudi Samarqand va Zakaspiy viloyatidan, 5 mln pudi – Rossiyaning Yevropa qismi va Kavkazdan Krasnovodsk orqali, 11 mln pudi – Rossiyaning Yevropa qismidan Orenburg orqali olib kelingan. [17.8]

Umuman aytganda mavjud temir yo'llar manfaktura va turli oziq-ovqat mahsulotlarini Rossiyanidan olib kelishni bir muncha yengillashtirdi. Aytish lozimki, bu davrga kelib Farg'ona viloyati xo'jalik hayoti Rossiyaga to'la va atrof viloyatlarga qisman tashib keltiriladigan donga toge, qaram bo'lib qolgan edi. Boshqacha aytganda Farg'ona viloyati Rossiyaning xom ashyo bazasi va tayyor mahsulotlar bozoriga aylanib bo'lgandi.

1914-1915-yillar ma'lumotlariga ko'ra olib kelingan yuklarning 35-40% don mahsulotlarini tashkil etgan. [1.34] bug'doy va un, asosan Farg'ona viloyatiga Rossiyaning Yevropa qismidan va Kavkazdan, makkajo'xori Kavkazdan faqat Krasnovodsk orqali olib kelingan.

Rossiya manfaktura tovarlari dastlabki yillarda Turkiston bozorida ingliz manfaktura tovarlari tomonidan kuchli raqobatga duch keldi. Biroq, XIX asrning 70-80-yillariga kelib, Zakaspiy, keyinchalik Toshkent va Farg'ona temir yo'llari qurilishi bilan rus fabrikalarining paxta matolari bu xuddudda yetakchi o'rinni egallay boshladi. Ular o'z sifati va arzonligi bilan ingliz manfaktura tovarlaridan ustun turar edi. Faqat 1904-yilda Farg'ona viloyatiga 740351 pud miqdorida, 9 million 625 ming rubl qiymatida manfaktura tovarlari keltirildi. [8.34] Bundan tashqari, u Sharq mamlakatlariga ham eksport qilindi. Biroq, 1910-yildan boshlab, bu xuddudda rus manfaktura tovarlari

TARIX

inqirozi sezila boshladi va bu inqiroz 1913-yilgacha davom etdi. Bu haqda Farg'ona chiqadigan gazeta "Farg'ona manfakturasi og'ir davrni boshdan kechirmoqda. Farg'ona bunday holatini xali boshdan kechirmagan" [9.93]

1913-1914-yillarda savdo firmalari kredit ajratishni keskin kamaytirdi. Savdogarlar tomonidan qilingan bu boykot epidemiya tusini oldi. Banklar veksel qarzlarini yig'ish bilan band bo'lishdi. Natijada, savdo aylanmasi keskin kamaydi. Masalan, davlat banki uch yil (1912-1914-yillar) davomida veksel bo'yicha qarzlarini 79 milliondan 74 million rublgacha qisqartirgan holda, tijorat kreditini 33 milliondan 48 million rublgacha oshirdi. Shu bilan birga, davlat banklari tomonidan kichikroq kredit tashkilotlariga (yoki xususiy foizxo'rlarg'a) ajratilgan kreditlar miqdori 2,7 million rubldan 7 million rublgacha oshdi. [5.3]

Shunday qilib, XX asr boshlarida Turkiston nafaqat Rossiya tovarlarining bozoriga, balki kapital kiritish bozoriga ham aylandi. Bu davrga kelib ba'zi yirik savdo firmalari paxta savdosini o'z qo'llariga ola boshladilar. Bu firmalar uch guruhga bo'linardi. [8.129] Birinchi guruhga bank kapitali bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mahalliy savdo firmalari kirardi. Ular qatoriga Toshkentdag'i Vadyayevlar, Davidovlar firmalari, Samarqanddag'i Fuzailovlar, Namangandagi Sagatelevlar firmalari kirar edi. Ular fabrikantlar bilan bevosita savdo qilardi.

Ikkinci guruhga xorijiy kapital bilan bog'liq firmalar kirar edi. Ular qatoriga asosan aka-uka Kraftlar firmasi kirar edi. Keyinchalik bu firma rus kapitali bilan ishlagan. Bu guruhga shuningdek, L.Knoppning savdo uyi kirar edi. Nihoyat, uchinchi guruhga o'z faoliyatini bank mablag'lari hisobidan amalga oshiruvchi barcha firmalar kirardi. Ular qatoriga Eron va O'rta Osiyoda savdo va sanoat uchun savdo jamiyat (Moskva xalqaro banki), Savdo-sanoat jamiyat (Moskva savdogarları banki), Andreyev jamiyat (Moskva xisob-kitob banki), Shlossberg va Adam Ossernen savdo uylari kirar edi.

Bulardan keyin, Lodz banklari yordamida faoliyat yuritayotgan qator Lodz olib sotar savdogarlari turgan.

Shunday qilib, Rossiyaning imperializm bosqichiga o'tishi bilan Turkiston o'lkasini, jumladan Farg'ona viloyatini iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qishloq xo'jaligi, aytish mumkinki, to'la Rossiya to'qimachilik sanoati uchun ixtisoslashdi. Paxtachilikni rivojlanishi qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga birinchi navbatda don yetishtirishga va chorvachilikka o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

XX asr boshlariga kelib, Farg'ona shahri Turkiston shaharlari orasida asosiy savdo markazi bo'lib qoldi. Rivojlanib borayotgan rus kapitalizmi Farg'ona viloyatining ichki, tashqi savdo munosabatlari va qishloq xo'jaligi rivojiga yordam berdi. Viloyatda kapitalizmga xos rus kapitalistlari qiziqishlariga xizmat qiluvchi tashkilotlar, sanoat tarmoqlari shakllandi. Asosan savdo va paxtani qayta ishlaydigan sanoat rivojlandi.

Turkiston o'lkasini va uning ajralmas qismi hisoblangan Farg'ona viloyatini asosiy xom ashyo manbai sifatida saqlashga intilgan holda podsho Rossiyasi bu yerdan paxta, jun, ipak (pilla), teri, xo'il va quruq mevalar va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashkib ketdi hamda sanoat mollarini olib keldi.

Ammo, o'lkada Rossiya imperiyasining siyosatiga qaramasdan sanoatning ayrim tarmoqlari rivojlandi va ularning mahsulotlari viloyatdan tashqariga, xususan Rossiyaga tashib ketildi.

XX asr boshlariga kelib Rossiya va Farg'ona viloyati o'tasidagi savdo va iqtisodiy munosabatlari miqdor va sifat jihatidan ko'paydi. Agar XIX asr oxirlarida Farg'ona viloyatidan paxta xom ashysi va pilla tashib ketilgan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib endi yog', kunjara va boshqa paxta mahsulotlari Rossiya va Yevropa bozorlariga olib ketiladigan bo'ldi.

Turkiston o'lkasi, ayniqsa, Farg'ona viloyati Rossiyaning ichki bozoriga aylandi. Iqtisodiy va savdo munosabatlari yanada jonlanib bordi. Bosib olinish oqibatida kapital kirib kelishi kuchayib bordi. Zakaspiy temir yo'li Turkiston O'lkasi, xususan Farg'ona viloyatining xo'jalik munosabatlarda alohida ahamiyatga ega bo'lib bordi. Tabiiy, paxtachilikning rivojlanishi natijasida don ekiladigan maydonlarning qisqarishi va uning oqibatida bug'doyga va boshqa boshqoli don mahsulotlari bo'lган ehtiyojning kuchayishi bilan bog'liq edi. Shu bilan birgalikda bu mahsulotlarning narx-navosi ham ortib bordi. Masalan, paxtaga nisbatan un, bug'doy, arpa va boshqa mahsulotlarning narxi 2-3 barobarga ortib ketdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gafurjonova I. O sotsialno-ekonomicheskem znachenii stroitelstva Ferganskoy jeleznoy dorogi v Turkestane. //Obshestvenniye nauki v Uzbekistane. 1963, №3, s.34

2. Gulshambarov S.I. Ekonomicheskiy obzor Turkestanskogo rayona, obslujivayushego Sredneaziatskuyu jeleznuyu dorogi. – Asxabad: 1913-ch I, s.87.
3. Zadachi Rossii v Sredney Azii v svyazi s voprosami o provedenii Sredneaziatskoy jeleznoy dorogi. SPb.-1900,s.26.
4. Rossiya Polnos gograficheskoye opisaniye nashego otechestva, T. XIX. Turkestanskiy kray, SPb.-1913,s.548.
5. Statisticheskiy yejegodnik Turkestanskogo kraya, SSU TES, ch.I, 1917-1923, Tashkent, 1924, s.61,161.
6. Yejegodnik Fernaskoy oblasti. T.1. Margelan, 1902-s.7.
7. Jadval Qo'qon birja komiteti va O'zRMA ma'lumotlari asosida tuzilgan.
8. Turkestanskoye selskoye xozyaystvo. 1912,№4, s-350; №2, s.129.
9. Ferganskoye oblastniye vedemosti. 1913, №93.
10. O'zRMA, 90-fond, 1-ro'yxat, 75-ish, 326,330,352-varaqlar.
11. O'zRMA, 90-fond, 1-ro'yxat, 252-ish, 43-varaq.
12. O'zRMA, 90-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 1-varaq.
13. O'zRMA, 90-fond, 1-ro'yxat, 253-ish, 43-varaq.
14. O'zRMA, 90-fond, 1-ro'yxat, 254-ish, 43-varaq.
15. O'zRMA, 90-fond, 12-ro'yxat, 51717-ish, 11-12-varaqlar.
16. O'zRMA, 90-fond, 4-ro'yxat, 1832-ish, 52-varaq.
17. O'zRMA, 90-fond, 1-ro'yxat, 113a-ish, 8-varaq.